

Jamiyat kelajagi yoshlar qo'lida

**t.f.n Yo'ldashev I. QDPI o'qituvchisi,
Boyazqulov A. QDPI magistranti**

Kishilik jamiyati jadal rivojlanib borayotgan XXI asrda tabiiy muvozanatni yaxshilash, tabiatni muhofaza qilish dunyo miqyosidagi muammo bo'lib qolmoqda. Ekologiya haqida so'z yuritganda Prezidentimiz I. A. Karimovning “ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning muammosiga aylangan”¹ – degan so'zlarini eslash o'rinlidir. Haqiqatan ham hozirda tabiiy muvozanatni saqlash va uni uzluksiz ravishda yaxshilab borish – butun dunyo ahamiyatiga ega muammoga aylanib qolmoqda.

Mamlakatimizda yer, yer osti boyliklari, o'simliklar, hayvonot dunyosidan foydalanish, ularni ilmiy asosda himoya qilish, suv va havoning tozaligini saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyamizning 50-moddasida “Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar”² deyilgan. Bundan tashqari tabiat boyliklaridan foydalanish, ularni muhofaza qilish, tiklashga oid ko'plab me'yoriy hujjatlar, dastur va rejalar qabul qilingan. Jumladan “O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonun, “O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ekologik ta'minlashning milliy harakatlar rejasi”, “O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit gigieyeni bo'yicha milliy harakatlar dasturi”, “Biologik rang-baranglikni saqlash bo'yicha milliy strategiya va harakatlar rejasi” va boshqalar. Ushbu ekologik dastur va rejalarda hozirgi kunda va kelajakda mamlakatimizda jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabat shakli qanday bo'lishi, uni amalga oshirishning taktik va strategik harakatlar dasturi va yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

Tabiat muhofazasini amalga oshirishda har qanday chora-tadbirlarni qo'llash

¹ Karimov I.A. “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot shartlari” Toshkent. “O'zbekiston” 1997. 112-bet

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. “O'zbekiston” 2012. 11-bet

bilan birga aholining xususan, yoshlarning ekologik ongi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti rivojlanib borayotgan globallashtirish sharoitida yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya berish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirish barkamol avlodni tarbiyalashning muhim shartidir. Shuning uchun ham, ekologik tarbiya jarayonida foydalaniladigan asosiy tushunchalar mazmunini ochib berish to'la asoslidir. Ekologik bilim bizning tevarak-atrofimizdagi tirik tabiat tuzulishi, tabiatni muhofaza etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir insonda atrof-muhit holati uchun mas'ullik hissinini tarbiyalash, yoshlarda tabiat bilan bog'liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlarni shakllantirishida muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonda ekologik ta'lim va tarbiya masalalari "Bog'cha bolalari tarbiyasi dasturi"ga ham kiritilgan. Bu dolzarb masalaning keying bosqichlari umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlarida bevosita davom ettiriladi. Usta, murabbiy, o'qituvchi o'z ishini shunday tashkil etishi kerakki, u o'quvchilar uchun ibrat bo'lsin. O'qituvchi, murabbiy, muhandis-pedagog o'quvchilar bilimini yangi tushunchalar bilan boyitishi, o'rgatiladigan materiallarni, tushuntirish shaklini bir oz murakkablashtirib borgan holda ekologik tarbiya berishni yanada chuqurlashtirishi lozim. Kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini nazariy jihatdan tayyorlash ishini ularning tabiatni muhofaza etish borasidagi amaliy faoliyati bilan bog'lash maqsadga muvofiq. Masalan, xonalarda o'stiriladigan o'simliklarni parvarish qilish, hududlarni tozalash, obodonlashtirish, bog'larga ishlov berish shular jumlasidandir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri ularda tabiatga bo'lgan axloqiy munosabatlarni tarbiyalashdir. Shuning uchun ham, tarbiyachi, murabbiy, o'qituvchi yaxshilik qilish, achinish, hamdardlik va o'qituvchilarga yordam berish hissi, ezigulik, axloqiy sifatlar insonning tabiatga nisbatan munosabatlarida ham namoyon bo'lishini o'zida aniq tasavvur etishi va uni o'quvchilarga asosli ravishda bayon qila olishi kerak. Yoshlarning tabiat bilan muloqoti ularda axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Tabiat – ezigulik manbayi, uning go'zalligi insonning ma'naviy olamiga ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarda axloqiy

sifatlarni shakllantirishda katta yoshdagi kishilarning ijobiy xatti-harakatlari va tabiatga bo'lgan amaliy oqilona munosabati yoshlar uchun saboq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarga hayvonlarni boqish, ko'paytirish, dorivor o'tlar va o'simliklarni yig'ish, atrof-muhitni, ish joyini toza tutish va boshqa masalalarda o'quvchi-yoshlarga o'rnak bo'lishlari kerak.

Biz tabiat sirlarini tobora chuqurroq bilganimiz va ekologik bilimlarimizni kengaytirganimiz sari tabiatning tabiiy go'zal shakllari va turlari haqidagi tasavvurlarimiz yanada boyib boradi. Zero, ekologik bilimlarsiz ekologik madaniyat ham shakllanmaydi. Yoshlar o'zlarining hayoti davomida tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir shaxs o'zida atrof-muhitning holati uchun shaxsiy mas'uliyat hissini tarbiyalashi lozimligini anglab yetishi shart. O'quvchilarga faqat tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishni o'rgatish bilangina ularda ekologik madaniyatni tarbiyalab bo'lmaydi. Yoshlarni tabiatdan oqilona foydalanishga, ma'naviy-madaniy boyliklarni yaratishga o'rgatish, shuningdek, ularga tabiat faqat foyda olish uchun emas, balki go'zallik qonunlariga ko'ra o'zgartirilishini tushuntirish lozim. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida quyidagilarga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, o'quvchi-yoshlarning hissiyotiga ta'sir etish, ular qalbida yoshlik chog'laridanoq tabiatga muhabbat uyg'otish lozim.

Ikkinchidan, o'quvchilar ongida tabiatni muhofaza etish va u bilan o'zaro ta'sir masalalarida faol nuqtayi nazarni shakllantirish. Jamiyatning har bir a'zosi hozirgi vaqtda uning tabiiy muhit holatiga bog'liqligi tobora ortib borayotganini anglashi zarur.

Uchinchidan, ekologik madaniyatni yuksaltirish ekologik ta'lim olishni uzluksiz davom ettirishni taqozo etadi. Ta'lim muassasalarida olingan ekologik bilimlar kelgusida ularni boyitib borish, rivojlantirish va mustaqil ishlashni talab etadi. Bunda tashkilot va muassasalarda ekologik yo'nalishda olib borilgan tarbiyaviy ishlar ham katta yordam beradi.

Ekologik madaniyat sohibi bo'lish – faqat tabiatga zarar keltirmaslik emas, balki uning gullab yashnashi, yanada yaxshilanishiga hissa qo'shish, unga beshafqatlarcha munosabatda bo'lganlarga qarshi kurashmoq ham demakdir. 1992-yilda respublikamiz miqyosida ana shu yo'nalishda ish olib boradigan “Ekosan” Xalqaro jamoatchilik tashkiloti tuzilgan. Tashkilot “Tabiatga oqilona munosabatda bo'!” shiori ostida harakat qiladi. Jamg'arma faoliyati doirasida aholining ekologik ongini shakllantirish, ma'rifatini yuksaltirish va tabiatni muhofaza etish bo'yicha ishlarni amalga oshirmoqda.

Yana bir narsani yoddan chiqarmaslik lozimki, har bir inson tabiat go'zalligini ko'ra bilsin, uning sahiyligini unutmasin, tabiatdan hayratlanib, ajablanib, zavqlanib yashasin.

Ilm sari – ilk qadam (porofessor-o'qituvchilar, iqtidorli talabalar, magistrantlar va mustaqil tadqiqotchilarning ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami)

Toshkent - 2014